Methodological Support of the Process of Developing Preschoolers' Cognitive Skills Through TRIZ (TIPS) in a Technology-Enhanced Learning Environment	641
<i>Gauxar Djanpeisova, Veronika Gorbunova</i>	
Innovative Approaches to Early Mathematics Education and Development in Preschool Children	646
<i>Gauxar Djanpeisova, Shaxodat Berdiyeva</i>	
Ta'lim jarayonida intensiv texnologiyalar asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi	650
<i>Radjabova Mohigul Alisherovna</i>	
O'quv jarayonida ongli mushohada ko'nikmasini rivojlantirishda savol-javob usulidan foydalanish asoslari	653
<i>Ro'zimetova Intizor Alimovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari yozuv malakalarini shakllantirishning psixolingvistik tasnifi	656
<i>Axmadaliyev Murodjon Ulug'bek o'g'li, Xojimatova Shoxsanam Erkinjon qizi</i>	
Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'qituvchi kompetensiyasiga ta'siri	659
<i>Azamatova Rayhona Bahromjon qizi</i>	
13-14 yoshli o'quvchilarda harakatli o'yinlar va zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiya qilishning pedagogik asoslari	662
<i>Babayev Anvarjon Axmedovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish (nazariya, amaliyot va natijalar) ...	666
<i>Berdiyev G'ayrat Ulaboyevich, A. N. Sadatova</i>	
Elektron portfoliolar asosida individual rivojlanishni monitoring qilishning diagnostik modeli	670
<i>Kopbayeva Baxtigul Ziyadinovna</i>	
Pedagogik atamalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati	674
<i>Islomov Nurtoy Nomoz o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning axloqiy-ta'limiy qarashlari	678
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Turg'unov Dostonbek Rustamjon o'g'li</i>	

Talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	682
<i>Ziyotov Farrux Saodilla o'g'li</i>	
Nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda sun'iy intellektning ahamiyati	686
<i>Ermonov Sherzod Ibrayim o'g'li</i>	
Kreativ yondashuv asosida bo'lajak muhandislarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari	690
<i>Ibragimova Aziza Avaz qizi</i>	
Oliy ta'limda dual ta'lim va malakaviy amaliyotni takomillashtirish ("musiqqa ta'limi" misolida)	694
<i>Raximov Nurillo Narzullayevich</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa san'atining shaxs ma'naviy-estetik tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati	698
<i>Sattarov Alisher Alikul o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda multimediali mantiqiy masalalar orqali o'quv jarayonini faollashtirish	702
<i>Jamoldinova Dildora Alijon qizi</i>	
Ta'lim markazlarida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasi	706
<i>Buriyeva Xumoraxon O'lmasboy qizi</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	710
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
AI-грамотность будущих педагогов: компоненты, вызовы и педагогические стратегии этической интеграции искусственного интеллекта	713
<i>Наркабилова Г. П.</i>	
Роль психолого-педагогических факторов в формировании нравственного поведения дошкольников	718
<i>Рахматходжаева Ф. М.</i>	
Внедрение инновационных технологий в дошкольно-образовательном учреждении	721
<i>Садикова Шоиста Акбаровна</i>	
Para stol tennisi sportchilarida jismoniy tayyorgarlikni oshirish samaradorligi	726
<i>X. A. Usmonova</i>	
Systematic Approach to the Issues of Educational Calculation in General Secondary Schools	729
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna</i>	
Роль системного профессионального развития в формировании компетентности учителей английского языка: международные тенденции и практика Узбекистана	733
<i>Жамолиддинова Нилуфар Акрамжоновна</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish usullari	738
<i>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna, Saidmudova Maftuna Alisher qizi, Hafizova Oydiyoy Doniyor qizi, Xujamkulova Maqsuda Ruzikulovna</i>	
Ingliz tili darslarida Kahoot o'quv platformasidan samarali foydalanish	743
<i>Amankulov Shavkat Qudratovich</i>	
Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasi	747
<i>Musratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога – ключ к эффективному взаимодействию с учащимися	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	



Voleybolda holat va harakatlanish, yuqoridan va pastdan to'p uzatish texnikasi	772
<i>Sulaymonov Jaxongir Solijonovich</i>	
Методика формирования экологической культуры учащихся в процессе спортивного туризма	775
<i>Абдурахманов Отахон Рустамович</i>	
Методы преобразования и обработки текстовых задач в преподавании математики в начальных классах.....	780
<i>Азамкулов Ахтамкул</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida kreativ-tanqidiy fikrlash va muammoli ta'lim texnologiyalari integratsiyasining didaktik imkoniyatlari.....	787
<i>Jumayeva Muxlisa Shokir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati .	793
<i>Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida jadid pedagogik merosidan foydalanish usullari	796
<i>Yusupova Madinajon Mansurbek qizi</i>	
Актуальность внедрения педагогики сотрудничества в современный учебный процесс на занятиях русского языка в группах с нерусским языком обучения	799
<i>Заболотина Анна Анатольевна</i>	
Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasini rivojlantirish tadqiqi	802
<i>Jo'rayeva Zebiniso Yo'ldoshevna</i>	
Alisher Navoiy asarlarida odob-axloq masalalarining falsafiy va tarbiyaviy talqini	807
<i>Ahadova Feruzaxon Akmaljon qizi, Usmonova Sofiyaxon</i>	
Globalashuv sharoitida ayollar ruhiy salomatligini saqlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	810
<i>Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi.....	814
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonsova Marjona G'ulomovna</i>	
Maktabgacha ta'limda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda teatr texnologiyalarining qo'llanilishi	819
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Sharobiddinova Shahzoda Doniyorbek qizi</i>	
Talabalarda agressiv xatti-harakatlar shakllanishining omillari	823
<i>Sa'dullayeva Aziza Iskandar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.....	829
<i>Farsaxonova Mastura Jalol qizi</i>	
Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni	836
<i>Kimsanov Jamshidbek Maxamatrasul o'g'li</i>	
O'qituvchilarda kasbiy so'nishning profilaktikasi bo'yicha ijtimoiy-psixologik texnologiyalar	841
<i>Jamoliddinova Nigora Tohirjon qizi</i>	
Ta'limning raqamli modifikatsiyalari asosida talabalarining axborot mobilligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar	846
<i>Xurramov Anvar Xudayshukurovich</i>	
O'zbek musiqiy merosining tarixiy-pedagogik rivojlanishi va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati	853
<i>Yuliyaxshiyev Sherali Narzullayevich</i>	
Учёт индивидуальных особенностей студентов национальных групп медицинского вуза в обучении русскому языку	857
<i>Мамаджанова Мохимир Рашидовна</i>	
Zamonaviy baholash texnologiyalari va xorijiy tajriba (boshlang'ich sinf "ona tili" darslari misolida).....	861
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasini boshlang'ich ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	867
<i>Abdug'afforova Aziza Abdurashid qizi, Qudratova Shaxnoza Baxtiyor qizi</i>	
Axborotni tanqidiy baholash asosida talabalarining mediasavodxonlik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	871
<i>Abdullajonova Nurzoda Nurmaxamadovna</i>	

Harbiy xizmatchilar faoliyatida professional kuyish sindromining oldini olish	874
<i>Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi</i>	
Plifunksional yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	879
<i>Abduraxmanova Mukaddam Mirsalikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik asoslari	883
<i>Barotova Huriyatxon Uzoq qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish modeli	887
<i>G'ofurova Sh. M.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zarurati	892
<i>Jovmirzayeva Nargiza Kuvondikovna</i>	
Talaba sportchilarning mashg'ulot yuklamalarini nazorat qilish xususiyatlari	895
<i>Matnazarov Anvar O'ktamovich, Jumonzarov Jaxongir Shixnazar o'g'li</i>	
Psixologik konsultatsiyada media ta'sirni inobatga olish zarurati	898
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Soft Tissue Control: In the Aesthetic Zone	901
<i>Murodkulov Samandar, Narziev Firdavs, Buzruksoda Javohir</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish mazmuni.....	905
<i>N. T. Misirova, Xursanova Mohinur Abdujabbor qizi, Ummatqulova Adashoy Baxtiyor qizi</i>	
Klassik ustoz–shogird an'analari va ularni innovatsion ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirishning pedagogik imkoniyatlari	910
<i>Raxmanova Nigora Xusanboyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim samaradorligini baholash usullari	914
<i>Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni tadqiq etishning nazariy-metodologik muammolari.....	918
<i>Shakirova Feruza Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarni pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga mo'ljallangan web platformalarning imkoniyatlari	922
<i>Shamsutdinov Fazliddin Axmadovich</i>	
Talabalarda virtual jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari.....	926
<i>Sodikova Odinaxon Abdugaprovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modellari ...	930
<i>Suyunova Nargiza Abdurashid qizi</i>	
G'ovlar orasidagi ritmik masofa tuzilishining sportchilarning musobaqadagi natijalariga ta'sirini tahlil qilish	934
<i>Talipov G'ulomojon Adiljanovich</i>	
Efficacy of a New Ointment for the Treatment and Prevention of Alveolitis.....	938
<i>Umarov Maruf, Abdurazzaqov Kamoliddin, Buzruksoda Javohir</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi	941
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonova Marjona G'ulomovna</i>	
Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati	945
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
6-7 yoshdagi bolalarni nutq o'stirish mashg'ulotlarida mustaqil fikrlashga o'rgatish	949
<i>Xabilova Sitora Tursunmurod qizi, Ziyadullayeva Madina</i>	
Local Anesthesia and Conduction Anesthesia	952
<i>Zulfiya Makhmudovna, Buzruksoda Javohir</i>	
Современное состояние и проблемы подготовки педагогических кадров к инклюзивному образованию	957
<i>Плиева Руслана Владимировна</i>	



MAKTABGACHA TA'LIMDA ETNOMADANIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA TEATR TEKNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI

Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna

Nizomiy nomidagi O'zMPU,
"Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrası dotsenti (PhD)

Sharobiddinova Shahzoda Doniyorbek qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU,
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim) yo'nalishi
2-kurs magistri, Toshkent shahri, O'zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishda teatr texnologiyalarining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Unda teatr san'ati, xususan, qo'g'irchoq va stol teatrlari vositasida bolalarda milliy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, estetik did hamda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning samarali yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, teatr texnologiyalari orqali bolalarning nutqi, emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: etnomadaniy kompetensiya, teatr texnologiyalari, qo'g'irchoq teatri, stol teatri, maktabgacha ta'lim, milliy qadriyatlar, ijodiy tafakkur, estetik tarbiya.

Abstract: This article examines the role and significance of theatrical technologies in developing ethnocultural competence among preschool children. It analyzes effective ways to foster national values, moral norms, aesthetic taste, and creative thinking through theatrical art, particularly puppet and table theatres. Special attention is paid to the development of children's speech, emotional, and social competencies through theatrical technologies, as well as to nurturing respect for national and universal values.

Key words: ethnocultural competence, theatrical technologies, puppet theatre, table theatre, preschool education, national values, creative thinking, aesthetic education.

Аннотация: В данной статье раскрываются роль и значение театральных технологий в формировании этнокультурной компетентности у детей дошкольного возраста. Рассматриваются эффективные пути развития у детей национальных ценностей, нравственных норм, эстетического вкуса и творческого мышления посредством театрального искусства, в частности кукольного и настольного театров. Особое внимание уделяется развитию речевых, эмоциональных и социальных компетенций детей с использованием театральных технологий, а также воспитанию уважения к национальным и общечеловеческим ценностям.

Ключевые слова: этнокультурная компетентность, театральные технологии, кукольный театр, настольный театр, дошкольное образование, национальные ценности, творческое мышление, эстетическое воспитание.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot oqimi tezlashgan davrda yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, madaniy merosga hurmat bilan qarash, turli millat va madaniyat vakillariga nisbatan bag'rikenglikni shakllantirish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri – bolaning shaxsiyati, dunyoqarashi va qadriyatlari shakllanishining muhim bosqichi hisoblanadi. Shu bois, bu davrda bolalarga etnomadaniy bilim va tasavvurlarni singdirish orqali ularning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan sanaladi.

Etnomadaniy kompetensiya – bu bolaning o'z milliy madaniyati, urf-odatlar, qadriyatlar, til boyligi va xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishuvi, ularni anglab yetishi hamda o'z hayotida qo'llay olish layoqatidir. Bunday kompetensiyani shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning innovatsion usullari, xususan, teatr texnologiyalaridan foydalanish samarali yo'nalishlardan biridir.



Teatr texnologiyalari bolaning emotsional-intellektual rivojlanishiga, ijodiy tafakkurining o'sishiga, nutqiy faolligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, milliy ertaklar, sahnalashtirilgan hikoyalar, dramalashgan ko'rinishlar orqali bolalarga xalq urf-odatlarini, qadriyatlarini, axloqiy me'yorlar singdiriladi. Bu esa ularning etno-madaniy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga zamin yaratadi.

Shuningdek, mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Uning samarali rivoji uzluksiz ravishda ta'lim sohasiga singib borayotgan islohotlarda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu kabi islohotlardan ko'zda tutilgan maqsad yosh avlod tarbiyasiga atroflicha yondashish, turli yosh guruhdagi bolalarning bilim doirasini kengaytirish, o'quv-bilim faoliyatini rivojlantirishdan iboratdir. Ushbu jarayon jamiyatimizning ijtimoiy va ma'naviy rivoji borasida olib borilayotgan tanqid qilish, turmushdagi ayrim qo'liqlar, nopokliklar, ziddiyat va egriliklar ustidan kulishni o'z oldiga maqsad qilib qo'rganlar faoliyati bilan ham uzviy bog'liqdir. Bu esa, o'z navbatida, oddiy xalq uchun zarur bo'lgan katta ijtimoiy vazifani o'taydi.

Qo'g'irchoq o'ynatuvchilarning maqsadi qanchalik xolis, samimiy va yuksak bo'lmasin, jamiyatda qo'g'irchoqbozlar past tabaqa hisoblangan, ayrim hollarda esa hatto tahqirlangan. M. Qodirovning fikricha, "Ulamolar qo'g'irchoq teatrlarini 'shayton ishi', qo'g'irchoqbozni shakkok va diyonatsiz, degan uydirma gaplarni tarqatib kelishgan. O'tmishda qo'g'irchoq teatriga olimlarimizning yetarli e'tibor bermaganliklarining boisi ham shunda".

Maktabgacha yoshdagi bolalarda teatrlashtirilgan tomoshalar (stol va qo'g'irchoq teatrlari) vositasida axloqiy sifatlarni shakllantirishda qo'g'irchoqlarning xatti-harakatlariga munosabat bildirish, bolalarda teatr ko'rish odobi hamda go'zallikni ko'ra bilish hissinini uyg'otuvchi samarali ishlar amalga oshiriladi. Hatto tili endigina chiqib, so'zlarni buzib gapirayotgan bolajonlar tarbiyasida ham teatrlashtirilgan tomoshalarining o'rni beqiyosdir. Chunki bolalar oddiygina salomlashish, xayrlashish odobini teatr qahramonlaridan o'rganishlari ehtimoldan xoli emas.

Teatrlashtirilgan tomoshalar (qo'g'irchoq teatrlari) dunyoning ko'plab xalqlari va elatlariga qadim zamonlardan ma'lum. Ular jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Qo'g'irchoq teatri har qaysi davlatda turli shaklda, hajmda, o'ziga xos tarzda taraqqiy etib, rivojlanib kelgan. Shulardan qo'g'irchoq teatrlarining to'rt turini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'g'irchoqlar;
- soyali qo'g'irchoqlar;
- ip bilan boshqariladigan qo'g'irchoqlar;
- aktyori ko'rinadigan qo'g'irchoqlar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Har bir teatr turidagi tomoshalarda sahna bezaklari, ulardagi xilma-xil ranglar va, albatta, undagi qahramonlar bola tafakkurini shakllantiribgina qolmay, uning dunyoqarashini o'zgartirib, go'zallikka intilishi, fikrlash doirasining kengayishiga yordam beradi. Umar Xayyom esa o'z ruboiylarida ilm-ma'rifat va aql-zakatni ulug'laydi, qabohat va razolatni qat'iy qoralaydi. Bundan tashqari, Umar Xayyomning lu'batbozlik xususidagi ruboiylarida "dastlab diniy ruhdagi masnaviy beriladi, shundan so'ng qo'g'irchoq teatrlarining ikki turi, ularning mazmuni va qurilishi bayon qilinadi, qo'g'irchoqboz kabi dil iplarini harakatga keltirmas ekan, inson harakatga kelmaydi", degan mazmundagi bayt bilan yakun yasaladi.

Tomosha qiluvchilar sahna ro'parasida o'tirib, ekranda yorug'lik orqali harakatlanayotgan soyalar – odamlar, hayvonlar va qushlar soyasini ko'rish mumkin. Soya teatri uchun odam va hayvon soyalarini bolalarning o'zlari chizib, qirib olishlari mumkin. Bolalarga shakllarning bosh va dumlarini qimirlata oladigan qilishni o'rgatish kerak. Buning uchun qo'g'irchoq detallari simlar yordamida biriktirilib, spiral holatda aylantirib qo'yiladi. Yillar o'tib, iplar yordamida harakatlanadigan qo'g'irchoqlar urf bo'lib borgan.

Teatrning bu turi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu esa uzluksiz ta'lim tizimining ilk bo'g'ini sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga har tomonlama e'tibor berish zaruratini kun tartibiga olib chiqadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ishini ko'p qirrali deb hisoblash mumkin. Shu jihatdan olib qaralganda, bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda teatrlashtirilgan tomoshalar, qo'g'irchoq va stol teatrlari ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Teatrlashtirilgan tomoshalar bolalar bilan bevosita muloqotda bo'lish, ularning "tili"da fikr almashish, maxsus ifoda vositalariga egaligi, bolalarni ishonitirish, voqea-hodisalarga nisbatan his-tuyg'ularini bildirish olish xususiyatiga ko'ra pedagogik ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda teatrlashtirilgan tomoshalar bolalarning iqtidori, obyektiv borliq haqidagi tasavvuri va dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish bilan birga, bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularni rivojlantirish asosiy maqsadlardan biridir. Bolaga maktabgacha yoshida berilgan bilim uning butun hayoti davomida yetakchi o'rinni egallaydi. Bu hayotiy zaruriyat "Ilk qadam" davlat dasturining asosini tashkil etadi. Jamiyatimizda olib



borilayotgan islohotlar ko'lamini, rivojlanib borayotgan fan-texnika taraqqiyoti asrida ota-onalar farzandlariga bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, ularning yoshiga munosib va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda zarur ta'lim-tarbiyani berib borish, ma'naviyati yuksak, har tomonlama yetuk inson qilib voyaga yetkazish lozimligini tobora anglab yetmoqdalar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tevarak-atrofni o'rganishdagi bog'lanishli nutqini rivojlantirish, aqliy rivojlanish xususiyatlari, bolalarning harakat salohiyatini maqsadli rivojlantirish texnologiyasi, bolalarning tasviriy savodxonligi va ekologik tushunchalarini shakllantirish, teatr masalalari, talabalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga estetik tarbiya berishga tayyorlash, bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish, bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash biz pedagoglarning asosiy vazifamizdir. Bunda stol teatri va qo'g'irchoq teatri vositasida bolaning atrof-muhitga bo'lgan munosabati, hayot haqidagi tasavvurlari, taassurotlari, u yoki bu hodisalarni tushunishi, go'zallikni ko'ra bilishi va his etishiga mas'uliyat hissi oshadi.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari asosida ishlangan o'zbek filmi barchamizga ma'lum. Filmni takror-takror, qariyb bir necha yillardan buyon tomosha qilib kelar ekanmiz, bu borada qo'g'irchoq tomoshasi aks etgan kichik epizodni eslatib o'tmoqchimiz. Ha, o'sha epizod ko'z oldingizda gavdalanadi.

Ertak va hikoyalar bolalar ilk bor duch keladigan adabiy janrlardan biri sifatida maktabgacha va boshlang'ich maktabda ona tilini o'qitishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Ushbu rivoyatlar bolalarga qaratilgan munosabat va xatti-harakatlarni doimiy ravishda shakllantirishda kuchli ta'lim vositalari sifatida ishlatilishi mumkin. Ushbu janrlarning, ayniqsa, ta'limiy mazmunga ega bo'lgan namunalarning misollari nafaqat bolalarning til rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, balki ularning qadriyatlar bilan tanishishiga ham yordam beradi. Bundan tashqari, teatr texnologiyalari orqali bola o'z xalqining madaniy merosi, kiyim-kechak, an'ana va marosimlar haqida amaliy tasavvurlar hosil qiladi. Bu esa uning etnomadaniy kompetensiyasi shakllanishiga asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar asosan kuzatuv, suhbat, so'rovnoma hamda pedagogik tajriba usullari orqali olindi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida teatr texnologiyalaridan foydalanish jarayoni bevosita kuzatilib, tarbiyachilar va bolalar bilan suhbatlar o'tkazildi. Shuningdek, bolalarning etnomadaniy kompetensiyasi darajasini aniqlash maqsadida so'rovnoma va diagnostik topshiriqlardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, guruhlash va umumlashtirish usullari yordamida tahlil qilindi. Natijalar sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar asosida baholanib, teatr texnologiyalarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi samaradorligi aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida teatr texnologiyalaridan, xususan, qo'g'irchoq teatri va stol teatridan foydalanish bolalarda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani kuzatildi. Kuzatuv va diagnostik topshiriqlar natijalari bolalarning milliy qadriyatlar, urf-odatlar va axloqiy me'yorlar haqidagi tasavvurlari sezilarli darajada boyiganini ko'rsatdi. Ayniqsa, sahnalashtirilgan ertak va hikoyalar orqali bolalarning nutq faolligi, emotsional ifodasi hamda ijtimoiy muloqot ko'nikmalari rivojlandi.

Tajriba-sinov mashg'ulotlari davomida teatr elementlari muntazam qo'llanilgan guruhlarda bolalarning ijodiy faolligi va estetik didi yuqorilargani aniqlandi. Taqqoslash natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan teatr texnologiyalari asosida tashkil etilgan faoliyat bolalarning mavzuga qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirokga undaydi. Shuningdek, bolalarda jamoada ishlash, o'z fikrini erkin ifodalash va boshqalarning fikrini hurmat qilish ko'nikmalari shakllanib bordi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, teatr texnologiyalaridan tizimli va maqsadli foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. Ular orqali bolalarda nafaqat bilim va tasavvurlar, balki milliy qadriyatlarga hurmat, estetik did va ijtimoiy xulq-atvor madaniyati ham izchil shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limda teatr texnologiyalaridan foydalanish bolalarda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ular orqali bola milliy qadriyatlarni anglaydi va qadrlaydi, axloqiy me'yorlarni o'zlashtiradi, ijodiy tafakkur va nutq madaniyatini rivojlantiradi, estetik did hamda ijtimoiy hissiyotlarni shakllantiradi.

Demak, teatr texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy, madaniy va ijodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa milliy o'zlikni anglagan, madaniyatlararo muloqotga ochiq, barkamol avlodni voyaga yetkazishning muhim omili hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Qodirov. O'zbek xalq qo'g'irchoq teatri tarixi. – Toshkent: Fan, 1998.
2. Karimova R. A. Maktabgacha ta'limda badiiy-estetik tarbiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
3. Umarova N. Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
4. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent: MTTVA, 2021.
5. Khamroyeva N., Ergasheva S. Etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda teatr faoliyatining roli. – "Ta'lim va innovatsiya" jurnali, № 4, 2023.
6. Yusupova D. Maktabgacha ta'limda teatr texnologiyalarining qo'llanilishi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
7. Khasanova, S. T., & Vasila, T. (2023, May). Development of imaginary-creative competences in the process of preparing future teachers for profession. In Next Scientists Conferences (pp. 84–91).
8. Khasanova, S., & Zufarova, L. (2023, June). Development of communicative skills in pre-school children through theater games. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 1–5).
9. Khasanova, S. (2021). Formation of national pride in children through teaching description of historical monuments in Uzbekistan. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(2), 734–738.
10. Xasanova, S. (2022). Организация развивающего образовательного пространства как фактор готовности ребенка к школе. *Science and Innovation*, 1(B8), 2199–2203.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.